

## O'quvchilarning aqliy tarbiyasi

Sadoqat Shoyatbek qizi Shuxratbekova  
Ilmiy maslahatchi: M.M.Mirzakarimova  
Andijon davlat chet tillari instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarning aqliy tarbiyasi, tarbiyaviy va ilmiy dunyoqarashi, ularning aqliy salohiyatini oshirish usullari yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** aqliy tarbiya, ilmiy dunyoqarash, dunyoqarashning shakllanishi, intellektual o'yinlar, bilish qobiliyati

## Intellectual education of students

Sadoqat Shoyatbek kizi Shukhratbekova  
Scientific advisor: M.M.Mirzakarimova  
Andijan State Institute of Foreign Languages

**Abstract:** This article discusses the intellectual education of students, their educational and scientific outlook, and methods for increasing their intellectual potential.

**Keywords:** intellectual education, scientific outlook, formation of outlook, intellectual games, cognitive abilities

Shaxsda dunyoqarash va aqliy tarbiya izchil va tizimli bog'langan, hamda maqsadga muvofiq tashkil etilgani, uning turli mazmun va yo'nalishdagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning komil inson bo'lishi va shaxsiy fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi.

Aqliy tarbiya ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilaridan biri bo'lib, shaxs tafakkurining shakllanishida katta o'rin tutadi. Bu tarbiya orqali inson tabiat va jamiyat taraqqiyotiga doir bilimlarni egallaydi, aqliy va bilish qobiliyatini, tafakkurini rivojlantiradi va shu orqali dunyoqarashi shakllanadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda yoshlarga aqliy tarbiya berishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, 1997 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da yuqori malakali, ma'naviy va axloqiy talabga javob beradigan kadrlarni tayyorlash asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Demak, chuqur bilimlarga ega bo'lish, ijtimoiy jarayonlarni to'g'ri tushunish va ularga baho bera olish orqali shaxs ijobiy va salbiy jihatlarni farqlashga erishadi.

Aqliy tarbiya esa o'quvchilarda ilm, fan, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish sohalarida erishilgan yutuqlardan samarali foydalanish, mustaqil va ijodiy fikrlash, tashabbuskorlikni shakllantiradi.

O'quvchilarning aqliy tarbiyasini rivojlantirishda mahalla, oila ayniqsa oilaning o'rni juda katta rol o'ynaydi. O'qituvchi o'quvchining aqliy tarbiyasini rivojlantirishda o'zining pedagogik mahorati va bir nechta metodlardan foydalanishi zarur. Misol uchun: kuzatish metodi, suhbatlashish metodi, rag'batlantirish va tanbeh berish kabi foydali usullar bilan aqliy tarbiyasini shakllantira oladi.

Aqliy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar sistemasi, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish	2. Aqliy faoliyat, bilish jarayonlari va qobiliyatlarini, aqliy jarayonning xilma-xil usullarini rivojlantirish
3. Mustaqil bilish qobiliyatlarini, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish	4. Aqliy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish

Maktab yoshidagi bolalarning aqliy qobiliyatini muntazam rivojlantirish jarayoni ta'lim orqali amalga oshiriladi. Bu esa maktabdada belgilangan dastur asosida bilimlarni o'zlashtirish, mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish bilan bog'liqdir.

Ushbu yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishida ta'lim muhim rol o'ynaydi, chunki tarbiya bilan bog'liq barcha masalalar aynan ta'lim jarayonida hal qilinadi. Bolalarga tizimli bilim berish, ularga axborotni tahlil qilish va tartibga solish imkonini yaratish, bilish jarayonlarini rivojlantirish hamda tafakkur faolligini oshirish ushbu jarayonning asosiy maqsadlaridan biridir.

Bundan tashqari, kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, tahliliy fikrlash, sinchkovlik va ziyraklik kabi fazilatlarini rivojlantirishga ham ta'lim yordam beradi.

Ta'lim bolalarda o'qish faoliyatining asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa ularning maktabdan keying hayotida ham muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Hayotiy bilimlar esa nazariy va amaliy usullar uyg'unligida o'rgatilishi lozim.

Yoshlarning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, innovatsion fikrlar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqish jarayoniga jalb etish uchun muhim sharoitlar yaratilmoqda. Iqtidorli talabalar, yosh olimlar va tadbirkorlarning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasini kuchaytirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Intellektual o'yinlar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilib, ularning mustaqil fikrlashi, xulosa chiqarishi, o'z fikrini erkin ifodalashi va jamoada faol ishtirok etishini shakllantiradi. Ushbu o'yinlar nafaqat o'qitishning amaliy tomonini kuchaytiradi, balki nazariy bilimlarning o'zlashtirilishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Intellektual o'yinlarni samarali tashkil etish uchun ularni oldindan

rejalashtirish va puxta tayyorlash muhimdir. Bu jarayonda mashg'ulotning har bir bosqichi, xususan, savollar mazmuni va o'yin shakli aniq belgilanishi kerak.

Shuni ta'kidlash lozimki, intellektual o'yinlar nafaqat o'quvchilarning bilimi va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, balki ularning mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. O'quvchilar o'zaro raqobatlashish jarayonida bilim almashadilar, mantiqiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish hamda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish ko'nikmalarini egallaydilar. Shu boisdan intellektual o'yinlar ta'lim jarayonida ahamiyatli vosita sifatida qo'llanilishi zarur.

Intellektual o'yinlarga misollar:

1. "Zakovat" (Savol-javob tanlovi)

Ishtirokchilar kichik jamoalarga ajratiladi va ularga turli mavzularda – ilmiy, tarixiy, mantiqiy hamda umumiy bilimlarga oid savollar beriladi. Har bir savolga javob berish uchun ma'lum vaqt belgilanadi. To'g'ri javob bergan jamoa ball to'playdi, eng ko'p ball yig'gan jamoa g'olib bo'ladi.

Foydasi: Ishtirokchilarning tez fikrlashini, jamoaviy muloqotini va bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

2. "Mantiq zanjiri"

O'yin boshlanishida boshlovchi bir so'z aytadi, ishtirokchilar esa ushbu so'z bilan mantiqiy bog'liqlikka ega keyingi so'zni topishlari kerak. Har yangi aytiladigan so'z oldingisiga mantiqan mos kelishi shart. Xatoga yo'l qo'ygan ishtirokchi o'yindan chiqadi yoki jarima ball oladi.

Foydasi: Ishtirokchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirib, ularda tezkor assotsiatsiyalar hosil qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

3. "Munozara maydoni"

Ishtirokchilar ikki guruhga bo'linadi va ularga muayyan mavzu beriladi. Har bir jamoa o'z pozitsiyasini himoya qilishi va qarshi tomonning dalillarini inkor etishi lozim. Bahs natijasida eng ishonchli va dalillarga asoslangan fikr bildirgan jamoa g'olib deb topiladi.

Foydasi: Ishtirokchilarning tanqidiy fikrlash, argumentatsiya va nutq so'zlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, aqliy tarbiya va intellektual o'yinlar o'quvchilarning bilimi, tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Aqliy tarbiya shaxsning dunyoqarashini shakllantirish, mustaqil fikrlash va bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Intellektual o'yinlar esa bu jarayonda qo'shimcha vosita sifatida xizmat qilib, o'quvchilarning fikrlash tezligini oshirish, mantiqiy tahlil qilish va jamoaviy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bois, ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga alohida e'tibor qaratish va intellektual o'yinlarni samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 92-94.
2. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – С. 7128-7131.
3. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL "INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 63-65.
4. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тadbirkorlikka йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 216-222.
5. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – Т. 5. – №. 3. – С. 15-17.
6. Мирзакаримова М. М. Умумтаълим фанларини тadbirkorlikka йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 97-103.
7. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O 'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO 'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – С. 410-415.
8. МИРЗАКАРИМОВА М. М. ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙЎНАЛТИРИБ ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ //Novateur Publications. – 2022. – №. 1. – С. 1-128.
9. Mirzakarimova M. M. et al. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 12. – С. 321-324.
10. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 11. – С. 78-83.
11. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 3. – С. 264-269.
12. Mirzakarimova M. M. et al. "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – С. 224-228.
13. Zamonaviy sharoitlarda umumta'lim M. M. M. fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o 'qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 216-222.

14. Mirzakarimova M. M. et al. O 'qituvchining muomala madaniyati //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 4. – C. 278-282.
15. MADAMINJONOVNA M. M. XORIJIY TILLARNI TADBIRKORLIKKA YO 'NALTIRIB O 'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI //Nova. Pub. – 2022. – C. 1-128.
16. Madaminjonovna M. M. Umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o 'qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 4. – C. 97-103.
17. Madaminjonovna M. M. et al. ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE" MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM //Web of Teachers: Inderscience Research. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 51-55.
18. Salamat Yegeubayeva; Allanazarova Feruza Karimberdievna; Amantai Kunakbayev; Rakhimov Sherzod; Bobomurodova Munajat; Sherquziyeva Guzal Faxritdinovna; Bakhtiyor Omonov; Bobojonov Otabek Khakimboy ugli; Mirzakarimova Makhliyokhon; Khayitmuradov Anvarjon; I.B. Sapaev; Mirzayeva Mutabar Azamovna; Komilov Rustamjon Makhamadovich. "The Effect of Copper Oxide Nanoparticles on Hepatic and Renal Toxicity in Domestic Rabbits", Journal of Nanostructures, 14, 1, 2024, 150-155. doi: 10.22052/JNS.2024.01.015.
19. Умнов Д. Г., Кариев А. Д., Тешабоев А. Ю., Мирзакаримова М. М. Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников // Перспективы науки и образования. 2024. № 6 (72). С. 420–436. doi: 10.32744/pse.2024.6.26.
20. Uzoqjonova, M. (2023). Tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM ta'limi tizimi. Science and Education, 4(9), 344–347. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6297>.
21. Uzokjonova, M. (2023). STEAM technology and the importance of gamification in it. Science and Education, 4(10), 365–368. Retrieved from <https://www.openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6361>.
22. Uzoqjonova, M. (2024). EKOLOGIK MA'DANIYATNI YOSHLAR ONGIGA PEDAGOGIK METODLAR YORDAMIDA SINGDIRISH. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(4), 99–100. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/72>.